

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING PROFILAKTIK HISOBGA
OLINGAN SHAXSLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATINING
TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI**

Narziyev Shaxzod Zoirovich

IIV Akademiyasi o'qituvchisi

Sobirov Kamoliddin Bobir o`g`li

IIV Akademiyasi 3-o 'quv kursi 307-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada profilaktika inspektorlarining profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyatini tashkil etish tushunchasi va ahamiyati ularni tartibga soluvchi normalar va ularni qo'llash amaliyoti tahlili, shuningdek, ushbu faoliyatni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari yoritib o'tilgan.

Annotation: This article highlights the concept and significance of the organization of work activities of preventive inspectors with prophylactically taken into account persons analysis of the norms governing them and the practice of their application, as well as the main directions for improving these activities.

Kalit so`zlar: Profilaktika inspektori, yakka tartibdagi profilaktika, profilaktik suhbat, profilaktik hisob, huquqbazarlik, g`ayriijtimoiy xulq-atvor

Keywords: Preventive inspector, individual prevention, preventive conversation, preventive accounting, infraction, anti-social behavior

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, elyurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda. Biz

mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. «Xalq davlat idoralariiga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan g'oya faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda¹

Jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquq va erkinliklari qat'iy intizom, ichki uyushqoqlik va mas'uliyat jihatidan ustuvor bo'lmasa, qonunlar va milliy an'analar, urf-odatlar, umuminsoniy qadriyatlar hurmat qilinmasa, demokratik huquqiy davlatni barpo etib bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan, hozirda turli sohalardagi kabi ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatini ham isloh qilish eng dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Profilaktika inspektorining profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishslash faoliyatini olib borishda ichki ishlar organlari profilaktik hisobida turuvchi shaxslarning axloqan tuzalishi va qayta huquqbazarlik sodir etishlarining oldini olish maqsadida ular bilan olib boriladigan profilaktika ishlarini tashkil etadi.

Ichki ishlar organlari profilaktik hisobda turuvchi shaxslarning qayta huquqbazarlik sodir etishlarining oldini olish maqsadida ular bilan olib boriladigan profilaktika ishlar profilaktika inspektorining oylik ish rejalari hamda meyoriy-huquqiy hujjatlar talablari asosida olib boriladi.

Profilaktika inspektorining profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishslash faoliyati deganda – ichki ishlar organlari profilaktik hisobida turgan shaxslarni axloqan tuzalishi va qayta huquqbazarlik sodir etishlarining oldini olish maqsadida ular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish faoliyati tushuniladi.

Huquqbazarlik sodir etgan shaxslarning tuzalishini ta'minlash va qayta huquqbazarlik sodir etishining oldini olish maqsadida profilaktika inspektorlari tomonidan huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan profilaktik tadbirlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi.2017 yil 23 dekabr

majmuidan iborat profilaktik hisob yuritiladi²

Profilaktika inspektori tomonidan «Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunning 35-moddasi talablari asosida quyidagi shaxslarga nisbatan profilaktik hisob ishi yuritiladi:³

1.Ilgari sudlanganlarga ular jinoiy jazoni o‘taganidan so‘ng, o‘ziga nisbatan ma’muriy nazorat o‘rnatilgan shaxslar bundan mustasno, ya’ni:

–sud tomonidan JKning 43-moddasida nazarda tutilgan jazo tayinlanib, jazoni to‘liq yoki qisman o‘tagan shaxslar;

–tayinlangan jazoni qo‘llashdan ozod qiluvchi amnistiya akti e’lon qilinganligi uchun jazodan ozod qilib, ayblov hukmi chiqarilgan shaxslar;

–hukm e’lon qilingunga qadar qamoqda bo‘lgan vaqtı JKning 62-moddasida nazarda tutilgan dastlabki qamoqni hisobga olish qoidalarini nazarda tutib, sud tomonidan tayinlangan jazo chorasiiga teng yoki bu choradan ortiq bo‘lganligi uchun jazodan ozod qilinib, ayblov hukmi chiqarilgan shaxslar.

2. O‘ziga nisbatan sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslarga, ya’ni:

–sodir etgan jinoyat uchun jazo tayinlashni istisno etadigan amnistiya akti e’lon qilinganligi bois jazo tayinlamasdan ayblov hukmi chiqarilgan shaxslar;

–jinoyat uchun ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish muddati o‘tib ketganligi bois jazo tayinlamasdan ayblov hukmi chiqarilgan shaxslar;

–hukm chiqariladigan vaqtga kelib qilmish ijtimoiy xavfeligini yo‘qotgan yoki uni sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfli bo‘lmay qolganligi bois jazo tayinlamasdan ayblov hukmi chiqarilgan shaxslar (kasalligi yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotganligi oqibatida jazodan ozod qilingan shaxslar);

–jamoat birlashmalari va jamoalar tomonidan qo‘llaniladigan jamoat ta’sir choralari yoki ma’muriy jazo choralari ko‘rish yo‘li bilan tuzalishiga erishish

² O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuniga ilmiy-amaliy sharx: Qonunga sharx/ Mualliflar jamoasi. Ma’sul muxarrir A.S.Tursunov.-T.; O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018.- B.37.

³ O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonuni// URL: <http://www.lex.uz>

mumkin deb topilganligi bois jazo tayinlamasdan ayblov hukmi chiqarilgan shaxslar (shartli hukm qilingan, tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi va boshq.);

–Jinoyat kodeksining 71-moddasiga muvofiq, o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilingan shaxslar.

3. Jinoyat ishini O'zbekiston Respublikasi JPKning 84-moddasiga muvofiq aybdorlik to'g'risidagi masala hal qilinmasdan turib o'ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan yoxud reabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qaror chiqarilgan shaxslarga, ya'ni JPKning 84-moddasiga asosan jinoyat sodir etilishida aybdorligi to'g'risidagi masala hal qilinmay turib jinoyat ishi tugatilgan quyidagi shaxslar:

–javobgarlikka tortish muddati o'tganligi uchun jinoyat ishi tugatilgan shaxslar;

–e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lganligi uchun jinoyat ishi tugatilgan shaxslar;

–aynan shu ayblov bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi mavjudligi uchun jinoyat ishi tugatilgan shaxslar;

–shu ayblov bo'yicha ishni tugatish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi (qarori) yoki vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoxud ishni tugatish haqida bekor qilinmagan qarori mavjudligi uchun jinoyat ishi tugatilgan shaxslar;

–ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lмаганлиги uchun jinoyat ishi tugatilgan shaxslar (JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno);

–o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli jinoyat ishi tugatilgan shaxslar;

–ishni tergov qilish yoki sudda ko'rib chiqish paytiga kelib, qilmish ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan yoxud vaziyat o'zgarishi oqibatida bu shaxs ijtimoiy jihatdan xavfli bo'lmay qolgan deb e'tirof etilganligi sababli jinoyat ishi tugatilgan shaxslar.

4. Jinoyat ishi bo'yicha o'ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lмаган

ehtiyot chorasi tanlangan jinoyat sodir etishda ayblanuvchilarga ya'ni:

–munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risida tilxat ehtiyot chorasi qo‘llanilgan shaxslar;

–shaxsiy kafillik, jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan shaxslar;

–garov ehtiyot chorasi qo‘llanilgan shaxslar;

5. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 40, 41, 45, 47, 52, 56, 58, 61, 106, 131, 1651, 183, 184, 1841, 1842, 1843, 187, 188, 1881, 189, 1891, 190, 191, 201, 202, 2021, 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbazarliklarni sodir etganlar;

6. Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytgan shaxslar (xulq-atvori tuzalganligi sababli ushbu ta’sir chorasini qo‘llashni davom ettirishga ehtiyoj yo‘q deb topilib, mazkur muassasalardan sud tomonidan belgilangan muddat o‘tishidan oldin chiqarilgan shaxslar bundan mustasno).

Profilaktika inspektori profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan yakka tartibda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda shaxsning yoshi, jinsi, ruhiy holati, ijtimoiy ahvoli, ma'lumoti va mutaxassisligi, ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatları kabi shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olishi lozim.

Shaxsni profilaktik hisobga qo‘yishga quyidagilar asos bo‘ladi:⁴

-vakolatli organning yoki mansabdor shaxsning ushbu Qonun 35-moddasining oltinchi xatboshisida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbazarliklar bo‘yicha ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarori;

-vakolatli organning yoki mansabdor shaxsning jinoyat ishini tugatish to‘g‘risidagi yoxud reabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risidagi qarori;

-o‘ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog‘liq bo‘lmagan ehtiyot chorasi tanlangan ayblanuvchi sifatida ishda ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi tergovchining yoki prokurorning qarori;

⁴ O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonuni// URL: <http://www.lex.uz>

- sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi;
- shaxsning jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilinganligi to‘g‘risidagi ma'lumotnoma;
- bolalar masalalari bo‘yicha komissiyaning qarori.

Bir shaxsni profilaktik hisobga qo‘yish uchun bir qancha asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, asoslarning har biri bo‘yicha alohida-alohida profilaktik hisobga olish amalga oshiriladi.

- Profilaktika inspektori bundan tashqari quyidagilarni amalga oshiradi:
- profilaktik hisobga olingan shaxsni g‘ayriijtimoiy xulq-atvorni davom ettirmaslik haqida ogohlantiradi;
 - profilaktik hisobga olingan shaxsni uning ish (o‘qish) va yashash joyidan tekshiradi, uning xulq-atvori haqida ma'lumotlar oladi;
 - jazoni ijro etish muassasasidan bo‘shatilgan shaxslarning oilasiga, shuningdek jamiyatga moslashishida ko‘mak beradi;
 - profilaktik hisobga olingan shaxsni o‘qish yoki ishga joylashtirilishida, shuningdek vaqtincha yashash joyi bilan ta'minlanishida, ijtimoiy hayotga moslashishi uchun moddiy ko‘mak olishida yordam ko‘rsatadi;
 - profilaktik hisobdagi shaxslardan axloqan tuzalayotgan va o‘zida ijtimoiy ijobiy xulq-atvorni shakllantira boshlaganlarini rag‘batlantirish yoki aksincha g‘ayriijtimoiy xulq-atvorini davom ettirgan shaxslarga nisbatan esa, qonunda belgilangan tartibda majburlash choralarini qo‘llaydi.

Profilaktika inspektorlari huquqiy holatining xususiyati shundaki, ularga qo‘ylgan vazifalarni bajarish uchun ichki ishlar organlari shug‘ullanadigan deyarli barcha turdagи faoliyat bilan shug‘ullanish topshirilgan: tashkiliy, profilaktik, ma‘muriy-nazorat, ma‘muriy prosessual, operativ qidiruv, jinoyat-prosessual va hokazo.

Shahar-tuman IIB Huquqbazarliklar profilaktikasi xizmatining quyi bo‘g‘ini bo‘lgan tayanch punktlari vazifalarini biz nazariya amaliyotni o‘rgangan holda quyidagi guruhgа bo‘lib o‘rganishimiz mumkin:

Birinchi guruh, profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash va

fuarolarning xavfsizligini ta'minlash faoliyati bo'yicha;

Ikkinci guruh, profilaktika inspektorining voyaga etmagan huquqbuzarlar nazoratsizligi va qarvosizligini oldini olish bo'yicha;

Uchinchi guruh, profilaktika inspektorining diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish bo'yicha;

To'rtinchi guruh, profilaktika inspektorining ichkilikbozlikga, giyohvandlikga, fohishabozlik va boshqa salbiy illatlarga qarshi kurash bo'yicha;

Beshinchi guruh, profilaktika inspektorining residiv jinoyatlarni oldini olish bo'yicha bo'lib o'rganishimiz mumkin.

Profilaktika inspektori shaxsga nisbatan profilaktik hisob yuritish bilan huquqbazarlik va jinoyat sodir etilishining oldini olish bilan birga jamoat tartibini va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash jarayoniga munosib xissa qo'shamdi. Chunki, huquqbazarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar bilan profilaktik ishlarni tashkil etish orqali ana shunday vazifalarni amalga oshiradi. Yuqorida qayd etilgan yo'naliishlarning barchasida huquqbazarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishslash faoliyati orqali ular bilan samarali profilaktik ishlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Xulosa qilib aytib o'tadigan bo'lsak profilaktika inspektorlari xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish masalasiga so'nggi yillarda jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida ichki ishlar organlari Huquqbazarliklar profilaktikasi xizmatlarining oldiga huquqbazarliklarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish hamda bu borada amalga oshiriladigan profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini oshirish asosiy vazifa sifatida belgilab berildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2017 yil 14 martdag'i «Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017 yil 12 apreldagi «Ichki

ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2017 yil 18 apreldagi «Ichki ishlar organlarining Huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlarining qabul qilinishi ichki ishlar organlari Huquqbazarliklar profilaktikasi xizmatlari oldida turgan asosiy vazifalarni belgilab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. <http://www.lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi <http://www.lex.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. <http://www.lex.uz>
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat–protsessual kodeksi <http://www.lex.uz>
5. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonuni// URL: <http://www.lex.uz>;
6. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi Qonuni// URL: <http://www.lex.uz>
7. O‘zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonuni// URL: <http://www.lex.uz>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5005-son Farmoni // URL: <http://www.lex.uz>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017 yil 14 martdagi PQ– 2833-sonli qarori lex.uz).// www.lex.uz//
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi «Ichki ishlar organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2896-sonli qarori <http://www.lex.uz>